



XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 13 - iyul

VI-66-130-7-93-K/22

Bulung‘ur tuman hokimligi

2022-yil iyul oyida tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismiga o‘zgartirish kiritish haqida

2021-yil O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 148-moddasiga asosan 2022-yil iyul oyi tuman mahalliy budjeti ijrosini sifatli yakunlash, bu borada budjet tashkilotlarida kreditorlik qarzlarni vujudga kelishini oldini olish, shuningdek, xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrda “Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-51-117-7-K/21-sonli qarori hamda tuman moliya bo‘limining 2022-yil 7-iyuldagi 01/02-32/168-sonli xatini inobatga olib, «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman moliya bo‘limining 2022-yil 07-iyuldagi 01/02-32/168-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2022-yil iyul oyi tuman mahalliy budjeti xarajatlar qismi ijrosi bo‘yicha budjet tasnifining ayrim bo‘lim, kichik bo‘lim, boblari hamda choraklar bo‘yicha daromadlar va xarajatlar miqdorining umumiy mutanosibligini saqlagan holda tuman mahalliy budjet muassasalari o‘rtasida bir budjet mablag‘lari oluvchisi uchun budjet mablag‘larining kamaytirilishi, boshqa budjet mablag‘lari oluvchisi uchun budjet mablag‘larining tegishli ravishda ko‘paytirilishi hamda rejadagi mablag‘larning bir xarajat turidan ikkinchi xarajat turiga o‘tkazilishi bo‘yicha 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3.Tuman hokimligi moliya bo‘limi (J.Narziyev)ga budget tasnifining ayrim bo‘lim, kichik bo‘lim, boblari va har bir harajat turlari bo‘yicha tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini belgilangan tartibda rasmiylashtirish va bu boradagi o‘zgartirishlarning tuman hududidagi budget tashkilotlariga ijro etish uchun yetkazish topshirilsin.

4.Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev), tuman hokimligi moliya bo‘limi (J.Narziyev) zimmlariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov

Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining
2022 yil 13 iyuldagi
VI-66-130-7-93-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Bulung'ur tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismiga o'zgartirish kiritish to'g'risida
TAQDIMNOMA**

(ming so'mda)

T/R	Muassasa nomi	bo'lim	kichik bo'lim	bob	Xarajat guruhi	Xarajat moddasi			Ko'payish	Kamayish	3 chorak	Iyul	Avgust	Sentabr
1	Bulung'ur tuman 9-son musiqa va san'at maktabi	7096	600	056	I	41	11	100	0	240000	-240000	-240000		
2	Bulung'ur tuman 9-son musiqa va san'at maktabi	7096	600	056	II	41	21	100	0	60000	-60000	-60000		
3	Bulung'ur tuman Bolalar-o'smirlar sport maktabi	7083	610	135	IV	42	32	200	300000	0	300000	300000		
JAMI		7000	000	000	X	0	0	0	300000	300000	0	0	0	